

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan “Huquq maktabi 2.0” platformasi va mobil ilovalarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: – sun’iy intellektga asoslangan huquqiy maslahat berish tizimi yaratiladi; – foydalanuvchilarning yoshi va kasb-koriga qarab shaxsiylashtirish algoritmlari joriy etiladi; – bolalar uchun maxsus multfilmlar va interaktiv materiallar yaratiladi; – abituriyentlar uchun test materiallari va tayyorgarlik kurslari ishlab chiqiladi; – huquq fani maktab o‘qituvchilari uchun alohida o‘quv-uslubiy rukn yo‘lga qo‘yiladi; – turli kasb egalari uchun maxsus kurslar va modullar yaratiladi; – chat-bot va ovozli yordamchi texnologiyalari joriy etiladi; – onlayn tarzda tanlov va olimpiadalarni o‘tkazish uchun viktorinalar moduli yaratiladi; – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilikka oid masalalarning muhokamasiga bag‘ishlangan suhbatlar tarzidagi vizual va audial podkastlar moduli yaratiladi; – O‘zbekistonda yuridik soha rivojlanish tarixi, hozirgi holati va islohotlariga bag‘ishlangan modul yaratiladi; – mobil ilovadan qanday foydalanishni tushuntiruvchi to‘liq qo‘llanma va tez-tez beriluvchi savollar (FAQ) bo‘limi yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Adliya vazirligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Adliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Adliya vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.